

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARING IJTIMOIY MOSLASHUVIDA - INKLYUZIV TA'LIMNING ROLI

Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi,

Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistranti

E-mail: ismatovashodiya429@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta`limni hayotga tadbiq etish, inklyuziv ta`lim tamoyillariga tayangan holda ta`lim dasturlari yaratish va jamiyatdagi kamsitishlarni oldini olish. Tenglik va uyg`unlikni targ`ib qilishni ilk yoshdan boshlash haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziya, inklyuziv ta`lim, integratsiya, dastur, nogiron, imkoniyati cheklangan bola, jamiyat, metodologik baza, tizim, variativ, tamoyil, korreksion, fiziologik, ijtimoiylashuv, individual, metodik yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматривается внедрение инклюзивного образования в жизнь, создание образовательных программ на основе принципов инклюзивного образования, а также предотвращение дискриминации в обществе. Подчеркивается важность пропаганды равенства и гармонии, начиная с самого раннего возраста.

Ключевые слова: Инклюзия, инклюзивное образование, интеграция, программа, инвалид, ребенок-инвалид, общество, методическая база, система, вариант, принцип, коррекционный, физиологический, социализация, индивидуальный, методический подход.

Abstract: In this article, the implementation of inclusive education, the creation of educational programs based on the principles of inclusive education, and the prevention of discrimination in society. It is stated that the promotion of equality and harmony should be started from an early age.

Key words: inclusion, inclusive education, integration, program, disabled, disabled child, society, methodological base, system, variant, principle, correctional, physiological, socialization, individual, methodical approach.

Inson yaralibdiki, orzular og`ushida yashaydi. Bora-bora mana shu orzular ezgu maqsadlarga aylanadi. Maqsadlarga erishish uchun esa rejalar tuzilib, qadam- baqadam harakat qila boshlaydi. Ammo jamiyatda imkoniyati cheklangan, yordamga muhtoj insonlar ham mavjud. Ularning yagona orzusi hamma qatori sog`lom inson bo`lishdir. Bunday insonlarni biz “nogiron” deb ataymiz. Ularni kamsitadigan insonlar ham jamiyatimizda uchrab turadi. Bunday dilxiraliklarni oldini olish va imkoniyati cheklangan bolalarga hamma qatori shaxs sifatida qarash maqsadida qonun va qarorlarimizga ham o`zgartirishlar kiritildi. Ta`lim sohasiga “inklyuziya”, “inklyuziv ta`lim”, “integratsiya” kabi so`zlar kirib keldi.

Inklyuziya teng huquqlilik emas, balki teng imkoniyatlilikdir. Jamiyatdagi har bir inson tili, dini, irqidan qat`iy nazar qonun va qarorlarga bo`ysunadi. Qonunlar ham insonlar manfaatidan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. Ammo ta`limdagi shart-sharoitlar hamma uchun birdek mos kelavermaydi. Har bir ta`lim tashkilotida imkoniyati cheklangan bolaga ham, sog`lom bolaga ham shart-sharoitlar yetarli bo`lsa bu inkluyiza deb ataladi.

Inklyuziv va integratsiya so`zleri o`xshash bo`lsa-da, ma`no va qo`llash doirasida farqlarga ega.

Inklyuziv so`zi ingliz tilidan olingan bo`lib, inclusive, inclusion – uyg`unlashmoq, uyg`unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma`nolarini bildiradi.

- **Ta`limdagi inklyuzivlik:** Nogironligi bor bolalar, turli ijtimoiy va madaniy kelib chiqishga ega bo`lgan o`quvchilar uchun umumiy ta`lim muhitida o`qish imkoniyatlarini yaratish.
- **Jamiyatdagi inklyuzivlik:** Har bir kishini, ular kim bo`lishidan qat`iy nazar, teng huquq va imkoniyatlar bilan ta`minlash.

Inklyuzivlik jamiyatning barcha a`zolari uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda to`samlarni yo`qotish tamoyiliga asoslanadi.

Integratsiya so`zi latin tilidan olingan bo`lib, integrare – birlashish, bir butun bo`lish, moslashish degan ma`nolarni bildiradi.

- **Ta`limda integratsiya:** Maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy sinflarga qo`shib, ularni mavjud tizimga moslashishga majburlash jarayoni. Bu yerda tizim o`zgarmaydi, balki bolaning moslashishi kutiladi.
- **Jamiyatdagi integratsiya:** Ijtimoiy guruh yoki shaxslarni jamiyatga qo`shish, lekin ular jamiyatning mavjud qoidalari va me`yorlariga moslashishi kerak bo`ladi.

Integratsiya bir-biridan ajralgan yoki turlicha bo`lgan qismlarni yagona tizimga birlashtirish jarayonini anglatadi.

Inklyuzivlik barcha odamlarni teng huquqli a`zo sifatida qabul qilish va tizimni ularga moslashishga yo`naltirish bo`lsa, integratsiya mavjud tizimga moslashish jarayonini bildiradi va tizimning o`zi o`zgarmaydi. Inklyuzivlik integratiyaga qaraganda ko`proq qamrovchan va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Sharqning mashhur allomalarida Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniyarning tarbiyaning maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta`limning ta`siri to`g`risidagi qarashlari inklyuziv ta`lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Inklyuziv ta`lim tizimining maqsad va vazifalari o`laroq quyidagilarni keltirib o`tishimiz talab etiladi:

- Ta`lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalarning ta`lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo`naltirilgan ta`lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;
- tarbiyalanuvchilarning ta`limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog`lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o`smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro`yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o`smirlarga nisbatan do`stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta`lim – ta`lim-tarbiyaning mutlaqo yangi tizimi. Bu esa pedagog tomonidan ta`lim jarayonini tashkil etishda har bir bolaning fiziologik va ruhiy rivojlanishi, ayniqsa, o`ziga xos bolalarning individual xususiyatlarini e`tiborga olinishini anglatadi. “Ilm yo`li” variativ dasturi mualliflarining nazarida, maktabgacha ta`lim tashkiloti ta`lim-tarbiya vazifasini amalga oshirish bilan birligida, bola hayotiy faoliyatining asosiy sohasi hamdir. Shu munosabat bilan, mazkur dasturda aynan pedagog har bir bolaning ichki imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish huquqini ta`minlashi lozim degan g`oyani ilgari suradi. Bu jarayonda bolalarning zaif toifasiga alohida e`tabor talab etiladi. Jamoada bolalar bir-biri bilan o`zaro aloqa bog`lashga, jinsi, irqi, millati, madaniyati, tili, e`tiqodi, yohi, alohida talab-ehtiyojlari, oilaning tuzilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat`iy nazar, boshqa kishilar bilan do`stona munosabatlar o`rnatishga o`rganadi.

“Ilm yo`li” variativ dasturi inklyuziv ta`limning quyidagi tamoyillariga tayanadi:

- Insonning qadr-qimmati uning qobiliyati va erishgan yutuqlari bilan belgilanmaydi;
- Har bir inson his etish va fikr yuritishga qodir;
- Har bir inson muloqot yuritishga va uning fikrlari e`tirof etilishiga haqlidir;
- Barcha kishilar bir-biriga ehtiyoj sezadi;
- Chinakam talim – muayyan o`zaro munosabatlar doirasidagi amalga oshirilishi mumkin;
- Barcha insonlar qo`llab-quvvatlashga va tengdoshlar bilan do`st bo`lishga ehtiyoj sezadi.

Inklyuziv ta`limni amaliyotga tadbiq etish ustida olib borilayotgan tajribalardan shuni xulosa qilish mumkinki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o`z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o`z vaqtida olib borilsa, albatta ko`zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya`ni inklyuziv ta`limning samarasi yuqori darajada bo`ladi. Maxsus ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuvini oshirish va ularning hayot sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalar o`rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, metodik yondashuvlarni takomillashtirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta`lim – nafaqat ta`lim, balki barcha uchun barobar imkoniyat yaratishning muhim vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi 20.09.2019-yildagi “Ilm yo`li” variativ dasturi.
2. O‘zbekiston Respublikasi 13.10.2020-yildagi PQ-4860-sonli “Alohidat tarbiyalashuvchilarning o‘sish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Pezidentining 29.12.2020-yildagi “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori.
4. X.N.Muzaffarova, D.Tangirova “Inklyuziv ta’lim” fani bo‘yicha o‘quv metodik qo‘llanma. /Jizzax davlat pedagogika instituti. 2011 y.
5. Белтоков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи (в норме и патологии)-М: Педагогика.1997.
6. Ashirova S.B. “Maktabgacha inklyuziv ta’lim” – O‘quv qo‘llanma. 2024-yil.
7. Ҳайдарова Шаҳло Нарзуллаевна. Мехрибонлик уйи тарбияланувчиларини оиласвий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари. «SCIENTIFIC P8
8. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.
9. Хайдарова Ш.Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ВОСПИТАНИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)